

Budapeshtda Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti bo‘lib o‘tdi

21-may kuni Budapesht shahrida Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlar davlat va hukumat rahbarlarining norasmiy sammiti bo‘lib o‘tdi. Sammitga Vengriya Bosh vaziri janob Viktor Orban mezbonlik qildi. Uchrashuvda, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, Qozog‘iston Prezidenti Qosim-Jo‘mart To‘qayev, Qirg‘iziston Prezidenti Sadir Japarov, Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdo‘g‘an, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va TDT Bosh kotibi janob Kubanichbek O‘muraliyev ishtirok etdi.

“Sharq va G‘arbning tutashgan nuqtasi” mavzusida tashkil etilgan norasmiy sammit davlat rahbarlariga o‘zlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha hamkorlikni mustahkamlash, umumiy mintaqaviy va global muammolar yuzasidan fikr almashish uchun muhim imkoniyat yaratdi.

Davlat rahbarlari kengashi tomonidan quyidagi hujjatlar imzolandi va qabul qilindi:

- Turkiy davlatlar tashkiloti norasmiy sammitining Budapesht deklaratsiyasi;
- “O‘zbekiston Respublikasining Turkiy madaniyat va merosi jamg‘armasidagi ishtiroki to‘g‘risida”gi qaror;
- TDT Bosh kotibining vakolat muddatini uzaytirish to‘g‘risidagi qaror;
- Davlat rahbarlari kengashining Afg‘oniston bo‘yicha bayonoti.

Tashqi ishlar vazirlari kengashi tomonidan quyidagi hujjatlar imzolandi va qabul qilindi:

- Turkiy davlatlar tashkilotining Vengriya vakolatxonasi ijrochi direktorini tayinlash to‘g‘risidagi qaror;
- “Shimoliy Kipr Turk Respublikasiga Turk akademiyasida kuzatuvchi maqomini berish to‘g‘risida”gi qaror.

Bundan tashqari, sammit doirasida taqdirlash marosimi ham bo‘lib o‘tdi va Nobel mukofoti sovrindori Turk molekulyar biolog Prof. Dr. Aziz Sanjarga Turkiy davlatlar tashkiloti tomonidan “Turk dunyosi birligiga qo‘shgan hissi” uchun “Alisher Navoiy xalqaro mukofoti” topshirildi.

Sammit doirasida Vengriya davlat operasida davlat va hukumat rahbarlari sharafiga madaniy dastur ham bo‘lib o‘tdi.

Budapesht norasmiy sammiti TDTning kuzatuvchi a‘zosi hududida o‘tkaziladigan birinchi sammitdir.

Sammit yakunlari bo‘yicha TDT Bosh kotibi, elchi, Kubanichbek O‘muraliyev va Vengriya tashqi ishlar va tashqi savdo vaziri Peter Siyarto (Péter Szijjártó) qo‘shma matbuot anjumani o‘tkazib, sammit yakunlari va TDT Davlat rahbarlari tomonidan qabul qilingan qarorlar haqida keng qamrovli ma’lumot berib o‘tdi.